

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARI PROFILAKTIKASINING INSTITUTSIONAL-HUQUQIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI



ISAYEV

Elyor Ergashevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi tizimining institutsional-huquqiy asoslarini kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida sohaga oid umumiy va maxsus qonunchilik bazasi, shuningdek, tizimga "keys-menejment" va "mahalla kesimida barvaqt oldini olish" kabi zamonaviy yondashuvlarni joriy etish masalalari ilmiy tahlil qilinadi. Muallif tomonidan amaldagi profilaktika mexanizmlarining samaradorlik indikatorlari va idoralararo hamkorlikning protsessual algoritmlari bilan bog'liq bo'lgan tizimli muammolar aniqlangan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari, milliy model, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yakka va umumiy profilaktika, idoralararo hamkorlik, institutsional mexanizmlar, mahalla, jamoat xavfsizligi.

Аннотация. Статья посвящена комплексному исследованию институционально-правовых основ системы профилактики правонарушений несовершеннолетних в Узбекистане. В процессе исследования проводится научный анализ вопросов внедрения в систему современных подходов как «кейс-менеджмент» и «раннее предупреждение в разрезе махалли». Автором выявлены системные проблемы, связанные с индикаторами эффективности действующих механизмов профилактики и процессуальными алгоритмами межведомственного взаимодействия.

Ключевые слова: правонарушения несовершеннолетних; национальная модель, профилактика правонарушений, индивидуальная и общая профилактика, межведомственное взаимодействие, институциональные механизмы, махалля, общественная безопасность.

Abstract. This article is devoted to a comprehensive study of the institutional and legal foundations of the juvenile delinquency prevention system in Uzbekistan. The research provides a scientific analysis of the issues regarding the implementation of modern approaches into the system, such as "case management" and "early prevention at the mahalla level". The author identifies systemic problems related to the performance indicators of existing prevention mechanisms and procedural algorithms for inter-agency cooperation.

Keywords: juvenile delinquency, national model, crime prevention, individual and general prevention, inter-agency cooperation, institutional mechanisms, mahalla, public safety.

O'zbekiston aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etishi voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini davlat xavfsizligining strategik yo'nalishi sifatida belgilaydi. Inson qadrini ulug'lashga qaratilgan islohotlar doirasida jazolovchi mexanizmlardan ijtimoiy-reabilitatsiya va pedagogik ta'sir choralariga o'tish huquqiy tizimning ustuvor vazifasiga aylandi.

So'nggi yillarda "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida inspektor-psixologlar va yoshlar yetakchilari kabi yangi institutsional tuzilmalar joriy etilgan bo'lsa-da, biroq sohada bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Umumiy va yakka profilaktika choralari o'rtasidagi mutanosiblikning yo'qligi, xalqaro standartlarning to'liq implementatsiya qilinmagani hamda idoralararo hamkorlikning aniq protsessual algoritmlari mavjud emasligi

profilaktika samaradorligini cheklamoqda. Shu bois, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda "keys-menejment" va "barvaqt oldini olish" kabi zamonaviy usullarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, profilaktika faoliyatini dalillarga asoslangan (*evidence-based*) modelga o'tkazish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Shu o'rinda, bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali milliy modelini yaratish uchun, avvalo, uning nazariy poydevorini tahlil qilish lozim. Yuridik fanda "profilaktika" tushunchasi va uning turlari bo'yicha turlicha ilmiy yondashuvlar mavjud. Xususan, kriminologiya fani asoschilaridan biri G.A. Avanesov o'zining fundamental tadqiqotlarida profilaktikani ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismi sifatida baholab, shunday yozadi: "Jinoyatchilikning oldini olish – bu jinoyatchilikning sabablarini va unga imkon beruvchi sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga, shuningdek, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir" [1]. Olim profilaktikani ikki yirik turga, ya'ni umumiy va yakka (individual) turlarga ajratadi. *Umumiy* profilaktika jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va huquqiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan bo'lsa, *yakka* profilaktika konkret shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini korreksiya qilishni nazarda tutadi.

Yuridik fanlar doktori, professor I. Ismailov O'zbekiston sharoitida profilaktika tizimini tadqiq qilar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, "bizning mintaqamizda profilaktika faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligiga asoslangan ijtimoiy hodisadir" [2].

Professor Q.R. Abdurasulova esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining latent (yashirin) xususiyati yuqori ekanligini ta'kidlab, yakka tartibdagi profilaktikada erta aniqlash (rannyaya profilaktika) mexanizmlarining oqsayotganiga alohida e'tibor qaratadi [3].

Yuqorida keltirilgan olimlarning ushbu nazariy qarashlariga qo'shilgan holda, bizningcha, bugungi kunda milliy qonunchilikda *umumiy* va *yakka* profilaktika o'rtasidagi chegaralarning noaniqligi kuzatilmoqda. Ko'pincha umumiy profilaktika

(*ma'ruzalar, yig'ilishlar*) yakka tartibdagi ishning o'rnini egallab olmoqda, bu esa "xavf guruhi"dagi o'smirlarning e'tibordan chetda qolishiga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro huquqiy standartlar tahlili shuni ko'rsatadiki, BMTning "Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoatchilikning oldini olish bo'yicha boshqaruv tamoyillari" (Ar-Riyod tamoyillari, 1990) va "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga doir minimal standart qoidalari" (Pekin qoidalari, 1985) milliy qonunchilik uchun andoza bo'lishi kerak. Ar-Riyod tamoyillarida profilaktikaning "ijobiy" (positive prevention) bo'lishi, ya'ni bolalarni jazolash emas, balki ularning ijtimoiylashuviga ko'maklashish zarurligi yoritiladi [4]. O'zbekiston qonunchiligini ushbu hujjatlar bilan qiyosiy tahlil qilganimizda, milliy qonunchilikda hali-hanuz "*status huquqbuzarliklari*" (faqat bolalar uchun taqiqlangan harakatlar, masalan, darsdan qochish) uchun ma'muriy-majburlov choralarining keng qo'llanilishi xalqaro tavsiyalarga to'liq mos kelmasligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda amalda bo'lgan Milliy qonunchilik bazasi ma'lumotlariga nazar tashlasak, 2025-yil yakuniga kelib mamlakatimizda *qonunlar, Oliy Majlis hujjatlari, Prezident farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ochiq me'yoriy hujjatlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlaridan* iborat normativ-huquqiy hujjatlarning umumiy soni 49 300 ga yaqinni tashkil etgan. Mazkur normativlarning umumiy tarkibida aynan voyaga yetmaganlar masalasi bilan bevosita bog'liq hujjatlar sonining ulushi esa 98 tani tashkil etib, yuqori qayd etilgan ko'rsatkichning taxminan 0,2%ni tashkil etmoqda.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunini tizimli va kompleks tahlil qilish orqali mamlakatda *umumiy* hamda *yakka* profilaktikaga oid huquqiy tartibga solish mexanizmlarida mavjud kamchiliklar va huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, normalarning o'zaro uyg'unligi hamda ularning amalda qo'llash samaradorligini baholash imkoni vujudga keladi. Shu bilan birga, huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammoli holatlarni ilmiy-huquqiy jihatdan ochib berish amaldagi tartibga solishning mazmunan va funksional

jihtadan yetarli darajada samarali ekanligini asosli tahlil qilishga xizmat qiladi. Ushbu tahlil natijalariga tayangan holda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, qonunchilik normalarining izchilligi va aniqligini ta'minlash, shuningdek, huquqni qo'llash hamda institutsional amaliyotni modernizatsiya qilishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Xususan, Yangi O'zbekiston sharoitida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish siyosati huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi sifatida shakllanib, uning huquqiy asoslari bir nechta "yadro" normativ aktlar hamda ularni rivojlantiruvchi ko'p sonli qonunosti hujjatlari orqali ta'minlanmoqda. Mazkur tizimning konstitutsion-huquqiy ruhi, avvalo, umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktikaning bir butun institutsional mexanizm sifatida mustahkamlanganligida namoyon bo'ladi. Bu borada "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun profilaktika faoliyatining tamoyillari, subyektlari, chora-tadbirlari va hamkorlik mexanizmlarini belgilab, umumiy va yakka profilaktikaning normativ konstruksiyasini tashkil etadi [5]. Shu bilan birga, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonun voyaga yetmaganlar bilan ishlashning maxsus huquqiy rejimi, tarbiyaga oid ta'sir vositalari, profilaktik hisob, ijtimoiy-huquqiy yordam hamda reabilitatsiya yo'nalishlarini kompleks tartibga solishi bilan ushbu sohada bazaviy manba maqomini saqlab qolmoqda [6].

So'nggi yillar, ayniqsa, 2024–2025-yillarda qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar profilaktika tizimini "jinoyatlarni mahalla kesimida barvaqt oldini olish" konsepsiyasiga yaqinlashtirib, amaliyotni natija indikatorlari, raqamlashtirish va muhitni xavfsizlashtirish (CPTED) mexanizmlari bilan boyitdi. Xususan, 2025-yilda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va jinoyatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan Prezident qarori profilaktik faoliyatni maqsadli rejalashtirish va boshqarishning yangi bosqichini belgiladi [7].

Bunga qo'shimcha ravishda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori mahalla tizimida profilaktik faoliyatni institutsional qayta tashkil etish, "mahalla yetiligi"ning o'zaro muvofiqlashgan ishlash mexanizmi, ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlashning alohida metodikasi, elektron planshet orqali biometrik identifikatsiya hamda "namunali xavfsiz ko'cha/uy" loyihalarida CPTED vositalarini joriy etish kabi instrumentlarni normalashtirdi [8].

Shuningdek, 2025-yilda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan o'zgartirishlar voyaga yetmaganlar profilaktikasida organlar rolini qayta belgilab, Milliy gvardiya tizimida bolalar bilan ishlash bo'linmalari, inspektor-psixolog institutlari va profilaktik ta'sirning yangi tashkiliy formalarini kuchaytirish uchun huquqiy shart-sharoit yaratdi [9]. Umumiy profilaktikaning huquqiy-ma'rifiy asoslari esa davlat ta'lim muassasalarida yuridik ta'limning uzluksiz tizimini joriy etish, voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi qarorida yanada aniqlashtirildi [10].

Amaldagi milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining umumiy va yakka profilaktikasi sohasida muayyan institutsional hamda me'yoriy baza shakllangan bo'lsa-da, mazkur tizimning samaradorligini cheklayotgan *konseptual-atamaviy huquqiy bo'shliq* saqlanib qolmoqda. Jumladan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda profilaktika faoliyatining umumiy prinsiplari, subyektlari va chora-tadbirlari belgilab berilgan bo'lib, u umumiy va yakka profilaktikaning normativ asosini tashkil etadi [5]. Ushbu qonunning 3–7-moddalarida profilaktikaning maqsadi, tamoyillari va subyektlari qayd etilgan, biroq voyaga yetmaganlar profilaktikasiga xos bo'lgan asosiy tushunchalar – "erta profilaktika", "xavf guruhi", "individual profilaktika rejasi", "keys-menejment" – qonun matnida tizimli va aniq ta'riflanmagan.

Mazkur holat maxsus qonun – "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda yakka tartibdagi profilaktika instituti nisbatan batafsil tartibga solingan bo'lsa-da, uning umumiy qonun

bilan atamaviy va mazmunan to'liq uyg'unlashmagan yanada yaqqol namoyon bo'ladi [6]. Masalan, maxsus qonunda "yakka tartibdagi profilaktika ishi" tushunchasi amaliyotga yo'naltirilgan holda qo'llanilsa-da, u umumiy qonundagi "yakka profilaktika" atamasi bilan bir xil mazmunda normativ definitsiya qilinmagan. Shuningdek, maxsus qonunda "xavf guruhi"ga kiruvchi bolalarni aniqlash mezonlari, erta profilaktikaning huquqiy mazmuni va individual rejalashtirishning majburiyligi qonun darajasida konseptual tarzda ochib berilmagan.

Natijada, huquqni qo'llash amaliyotida quyidagi salbiy holatlar kuzatiladi:

yakka profilaktika ko'p holatlarda faqat profilaktik hisobga qo'yish va suhbat o'tkazish bilan cheklanadi;

xavf omillarini (oilaviy muhit, ta'limdagi uzilishlar, psixologik holat, ijtimoiy muhit) kompleks baholash va ularni bartaraf etishga qaratilgan individual choralar tizimli qo'llanilmaydi;

reabilitatsiya va qayta ijtimoiylashuv natijalarini o'lchash va baholash mezonlari mavjud emas;

profilaktika choralarining manzilliligi va ta'sirchanligi pasayadi, turli hududlarda bir xil holatlarga nisbatan turlicha yondashuv shakllanadi.

Bu esa profilaktika faoliyatining formal-ma'muriy xarakterga ega bo'lib qolishiga, ijtimoiy samaradorligini pasaytirishga olib keladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, mazkur holat profilaktik siyosatning "chora-tadbirlar yig'indisi" sifatida emas, balki yaxlit ijtimoiy-huquqiy institut sifatida shakllanmaganini ko'rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy tahlillar va amaliyotni kompleks baholash natijalaridan kelib chiqqan holda, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan 3-moddasiga quyidagi tushunchalarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan:

1. erta profilaktika – huquqbuzarlik sodir etish xavfi mavjud bo'lgan voyaga yetmaganlarni huquqbuzarlikka olib keluvchi ijtimoiy, psixologik va oilaviy omillar ta'siriga tushib qolishidan oldin aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

2. xavf guruhi – ijtimoiy muhit, oilaviy holat, ta'limdagi muammolar, psixologik omillar yoki oldingi g'ayriijtimoiy xulq-atvor belgilarining

mavjudligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan voyaga yetmaganlar toifasi;

3. individual profilaktika rejasi – voyaga yetmaganga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika doirasida ishlab chiqiladigan, mas'ul subyektlar, chora-tadbirlar, muddatlar va kutilgan natijalarni qamrab oluvchi hujjat;

4. keys-menejment – voyaga yetmagan bilan bog'liq profilaktika ishlarini idoralararo hamkorlik asosida rejalashtirish, muvofiqlashtirish, monitoring qilish va baholashni nazarda tutuvchi kompleks boshqaruv usuli.

Ikkinchidan, milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining umumiy va yakka profilaktikasini amalga oshirishda idoralararo hamkorlik prinsip sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, uning amaliy protsessual algoritmlari qonun darajasida aniq belgilanmagan.

Xususan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida davlat organlari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi nazarda tutilgan [5]. Ushbu Qonunning 7-moddasi profilaktika subyektlari tizimini belgilab, 9–10-moddalarda idoralararo komissiyalar faoliyati haqida umumiy qoidalarni qayd etiladi. Biroq ushbu normalar tashkiliy-deklarativ tusga ega bo'lib, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda qo'llanilishi lozim bo'lgan keys-menejment, yetakchi subyekt (koordinator), axborot almashinuvi muddatlari, mas'uliyat taqsimoti kabi muhim protsessual masalalarni qamrab olmaydi.

Shuningdek, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi maxsus qonunda ham yakka tartibdagi profilaktika ishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, u asosan ichki ishlar organlari vakolatlari doirasida bayon etilgan bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, mahalla, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar o'rtasidagi keys darajasidagi hamkorlik mexanizmi qonun darajasida ochib berilmagan [6]. Natijada, qonunlarda "hamkorlik qilish", "axborot almashish" kabi umumiy ifodalar mavjud bo'lib, ularning qanday tartibda, qaysi muddatlarda, kimning rahbarligida amalga oshirilishi ochiq qolgan.

Bu huquqiy bo'shliq amaliyotda quyidagi salbiy holatlarga olib kelmoqda:

– bir bola yoki bir oila bilan bir vaqtning o'zida bir nechta idoralar (IIO, ta'lim, ijtimoiy xizmat, mahalla) parallel ish olib boradi;

– profilaktik hisoblar, tavsiyalar va rejalar o'zaro muvofiqlashtirilmaydi, ma'lumotlar takrorlanadi;

– qaysi organ yetakchi subyekt ekani va yakuniy qaror uchun kim javobgarligi noaniq bo'ladi;

– profilaktika natijadorligi uchun shaxsiy va institutsional mas'uliyat tarqoqlashadi.

Ayniqsa, mahalla kesimida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish siyosati kuchayib borayotgan sharoitda (Prezident qarorlari bilan belgilangan vazifalar doirasida) mazkur protsessual bo'shliq profilaktika faoliyatini manzilli va tizimli tashkil etishga jiddiy to'sqinlik qiladi [11].

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy tahlillar va amaliyotni kompleks baholash natijalaridan kelib chiqqan holda, “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga qo'shimcha yangi 14¹-moddani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“14¹-modda. Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda idoralararo keys-menejment va hamkorlikning protsessual tartibi

1. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda yakka tartibdagi profilaktika ishlari idoralararo keys-menejment asosida amalga oshiriladi.

2. Idoralararo keys-menejment: xavf guruhiga kiruvchi voyaga yetmaganni aniqlash; barcha manfaatdor subyektlar ishtirokida keysni baholash; individual profilaktika rejasini ishlab chiqish; rejaning ijrosini monitoring qilish va natijalarni baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

3. Yakka profilaktika ishida ichki ishlar organlari yetakchi subyekt (keys-koordinator) hisoblanadi va: idoralararo hamkorlikni muvofiqlashtiradi; axborot almashinuvini tashkil etadi; individual profilaktika rejasining ijrosi uchun javobgar bo'ladi.

4. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, mahalla, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar va boshqa subyektlar: belgilangan muddatlarda zarur axborotni taqdim etishi; individual profilaktika rejasini doirasida o'z vakolatlari bo'yicha choralar

ko'rishi; amalga oshirilgan ishlar yuzasidan keys-koordinatorga hisobot berishi shart.

5. Idoralararo axborot almashinuvi: bolaning huquqlari va shaxsiy ma'lumotlari muhofazasi ta'minlangan holda; belgilangan muddatlarda; faqat profilaktika maqsadlari uchun amalga oshiriladi.

6. Idoralararo keys-menejmentni amalga oshirish tartibi, axborot almashinuvi shakllari, muddatlari va hisobot mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi”.

Uchinchidan, yakka profilaktika jarayonida bolaning protsessual kafolatlarini ta'minlash masalasi namoyon bo'ladi. “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi qonunda yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish asoslari va muddatlari ko'rsatilgan bo'lsa-da, bolani eshitish tartibi, individual profilaktika rejasini bilan tanishish huquqi, ma'lumotlarni saqlash va yo'q qilish qoidalar, psixolog yoki pedagog ishtirokining minimal standartlari aniq protsessual paket sifatida mustahkamlanmagan [11]. Bu esa bola huquqlarining himoya darajasi hududlar kesimida turlicha bo'lishiga va huquqni qo'llash amaliyotida bahsli holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, milliy qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining umumiy va yakka profilaktikasi sohasida jamoatchilik nazorati va hisobdorlik institutlari prinsipial jihatdan e'tirof etilgan bo'lsa-da, ularning amaliy mexanizmlari, baholash mezonlari hamda natijalarni ochiq e'lon qilish tartibi qonun darajasida to'liq va aniq shakllantirilmagan.

Avvalo, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunda profilaktika faoliyatining asosiy prinsiplari qatorida ochiqlik, jamoatchilik bilan hamkorlik va fuqarolar ishtirokini ta'minlash tamoyillari belgilangan [5]. Xususan, Qonunning 4-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasi davlat organlari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi qayd etilgan, shuningdek, 7-moddasi profilaktika subyektlari tarkibiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarini kiritadi [5].

Biroq mazkur normalar deklarativ xarakterda bo'lib, jamoatchilik nazoratining aniq shakllari,

profilaktika faoliyati samaradorligini baholash indikatorlari, ochiq hisobot mazmuni va uni aholiga taqdim etish tartibi qonun darajasida belgilab qo'yilmagan. Qonun matnida profilaktika subyektlari “ish olib boradi”, “hamkorlik qiladi” degan umumiy ifoda bilan cheklanib, qay tarzda hisobot beradi, qaysi ko'rsatkichlar asosida baholanadi degan masalalar ochiq qolgan.

Mazkur huquqiy noaniqlik “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi maxsus qonunda ham kuzatiladi. Ushbu Qonunda mahalla, ta'lim muassasalari, komissiyalar va jamoat tashkilotlarining voyaga yetmaganlar bilan ishlashdagi ishtiroki nazarda tutilgan bo'lsa-da, profilaktika tadbirlarining natijadorligini baholash, jamoatchilikka hisobot berish, profilaktik ishning ijtimoiy ta'sirini ochiq ko'rsatishga doir normalar mavjud emas [6]. Natijada, profilaktika faoliyatining mazmuni ko'p holatlarda “tadbir o'tkazildi/reyd o'tkazildi” kabi formal hisobot bilan cheklanib qoladi.

Ushbu bo'shliqni to'ldirish yo'lida davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirishga qaratilgan muhim institutsional qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyunda qabul qilgan “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonini ko'rsatish mumkin. Mazkur Farmon bilan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini baholash tizimi joriy etildi, ochiq ma'lumotlar, jamoatchilik bilan muloqot va hisobdorlik standartlari belgilab berildi [12]. Biroq ushbu Farmon umumiy boshqaruv sohasiga qaratilgan bo'lib, unda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi bo'yicha maxsus indikatorlar, baholash mezonlari yoki hisobot formalari mustaqil tarzda nazarda tutilmagan.

Natijada, huquqni qo'llash amaliyotida quyidagi salbiy holatlar yuzaga kelmoqda:

– profilaktika faoliyati natijadorligini baholash bir xil mezonlar asosida amalga oshirilmaydi;

– mahalla, ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bo'yicha ochiq va taqqoslanuvchi hisobotlar mavjud emas;

– jamoatchilik va OAV uchun profilaktika ishlarining haqiqiy ta'siri (qayta huquqbuzarlikning kamayishi, maktab davomati yaxshilanishi, xavf

guruhining qisqarishi) haqida dalillarga asoslangan axborot yetarli emas;

– jamoatchilik nazorati ko'pincha formal tus olib, qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri cheklangan bo'ladi.

Bu holatlar profilaktika siyosatida “faoliyat bor, natija aniq emas” degan institutsional muammoni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar profilaktikasi kabi ijtimoiy jihatdan o'ta muhim sohada natijadorlikni o'lchash va uni jamoatchilikka ochiq taqdim etish mexanizmining yo'qligi davlat organlari faoliyatiga nisbatan ishonchni pasaytiradi hamda profilaktikaning dalillarga asoslangan (evidence-based) modeliga o'tishni cheklaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur huquqiy bo'shliqni bartaraf etish uchun “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunda jamoatchilik nazorati va hisobdorlikka oid normalarni aniqlashtirish va protsessuallashtirish zarur. Xususan, profilaktika subyektlari uchun:

– yagona baholash indikatorlari (qayta huquqbuzarlik darajasi, xavf guruhining dinamikasi, ta'lim davomati, ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari);

– ochiq yillik hisobot taqdim etish majburiyati;

– mahalla kesimida profilaktika natijalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish tartibi qonun darajasida mustahkamlanishi lozim.

Bunday yondashuv, bir tomondan, Prezidentning yuqorida keltirilgan Farmoni bilan belgilangan ochiqlik va hisobdorlik siyosatiga mazmunan mos kelsa, ikkinchi tomondan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktika qilish sohasida qaror qabul qilishni dalillarga asoslangan tarzda yo'lga qo'yish imkonini beradi. Shu tariqa, jamoatchilik nazorati instituti formal deklaratsiyadan amaliy va samarali mexanizmga aylanadi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy tahlillar va amaliyotni kompleks baholash natijalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonuniga 20¹, 20², 20³ va 20⁴-moddalarni qo'shimcha yangi moddalar sifatida kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

“20¹-modda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini baholash indikatorlari

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi yagona indikatorlar tizimi asosida baholanadi.

2. Indikatorlar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- huquqbuzarliklar va takroriy huquqbuzarliklardinamikasi;
- xavf guruhidagi shaxslar (shu jumladan voyaga yetmaganlar) bilan yakka tartibdagi ish natijalari;
- profilaktika tadbirlarining qamrovi va ijtimoiy ta'sir ko'rsatkichlari;
- profilaktika subyektlari o'rtasida axborot almashinuvi va hamkorlik samaradorligi;
- jamoatchilik murojaatlari va ular ko'rib chiqilishining natijaviyligi.

3. Indikatorlar tizimi, hisoblash uslubiyoti, ma'lumot manbalari va davriyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi".

"20²-modda. Profilaktika sohasida ochiq hisobot va hisobdorlik

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari **har yili** profilaktika natijalari bo'yicha **ochiq hisobot**e'lon qiladi.

2. Ochiq hisobotda kamida quyidagilar aks ettiriladi:

- 20¹-moddada nazarda tutilgan indikatorlar bo'yicha natijalar;
- profilaktika tadbirlarining asosiy yo'nalishlari va qamrovi;
- qayta huquqbuzarlik xavfini kamaytirishga qaratilgan choralar;
- jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra ko'rilgan chora-tadbirlar;
- keyingi davr uchun "muammo–chora–natija indikatorlari" formatidagi reja.

3. Ochiq hisobotlar tegishli organlarning rasmiy veb-saytlarida va boshqa ochiq axborot kanallarida e'lon qilinishi shart".

"20³-modda. Profilaktika bo'yicha jamoatchilik muhokamasi, eshituvi va monitoringi

1. Profilaktika sohasida jamoatchilik nazorati "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan shakllar (jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, so'rovlar va boshqalar) asosida amalga oshiriladi.

2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga

oshiruvchi organlar:

- yillik ochiq hisobot yuzasidan **jamoatchilik eshituvini** tashkil etishi;
- jamoatchilik monitoringi natijalari bo'yicha **yozma munosabat** bildirishi;
- jamoatchilik nazorati natijalarini inobatga olgan holda profilaktika choralari qayta ko'rib chiqishi shart.

3. Jamoatchilik eshituvi va muhokamasini o'tkazish tartibi, ishtirokchilar doirasi va natijalarni rasmiylashtirish talablari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi".

"20⁴-modda. Ochiq ma'lumotlar va dalillarga asoslangan profilaktika

1. Profilaktika sohasida qaror qabul qilish **dalillarga asoslangan** (evidence-based) yonda-shuv asosida amalga oshiriladi.

2. Vakolatli organlar profilaktika natijalarini baholash uchun zarur bo'lgan statistik va tahliliy ma'lumotlarni, shaxsiy ma'lumotlar va bola huquqlari kafolatlari saqlangan holda, **ochiq ma'lumotlar** sifatida taqdim etib boradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yuqorida bayon etilgan huquqiy bo'shliqlar tahlili voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini umumiy va yakka profilaktika qilish sohasida qonunchilikni takomillashtirish, avvalo, atamalar uyg'unligini ta'minlash, idoralararo hamkorlikni protsessuallashtirish, yakka profilaktikada bolaning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, jamoatchilik nazorati va dalillarga asoslangan baholash mexanizmlarini qonun darajasida belgilash, shuningdek mahalla kesimida barvaqt oldini olish standartlarini joriy etishni talab qiladi. Mazkur choralar milliy qonunchilikni xalqaro standartlar, xususan BMTning Er-Riyod yo'riq-nomalari va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablari bilan uyg'unlashtirishga ham xizmat qiladi [13].



Foydalanilgan manbalar

1. Аванесов Г.А. Криминология и социальная профилактика. – М.: Академия МВД СССР, 1980. – С. 185–187.
2. Ismailov I. Jinoyatchilikning oldini olish muammolari: Nazariya va amaliyot. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 64-b.
3. Abdurasulova Q.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi: muammo va yechimlar. – T.: Adolat, 2015. – 45-b.
4. Руководящие принципы Организации Объединенных Наций для предупреждения преступности среди несовершеннолетних (Эр-Риядские руководящие принципы): Приняты резолюцией 45/112 Генеральной Ассамблеи от 14 декабря 1990 года.
5. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni, 2014 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-son qonuni, 2010 // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, PQ-253-son qarori, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi O'RQ-1024-son qonuni, 2025.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim muassasalarida yuridik ta'limning uzluksiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 532-son qarori, 2024
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-253-son qarori, 2025 // lex.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son farmoni, 2022 // lex.uz
13. United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). GA Res. 45/112, 14 December 1990 // Convention on the Rights of the Child, 20 November 1989.

